


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib




## Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 6081,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 0,9 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalar tovar aylanmasi 1 264,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 155,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4817,2 mlrd. so'mni (9,5 % ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 399,4 mlrd. so'mni (21,2 % ga kamaydi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

## UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 6 **081,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **99,1** % ni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida ayrim tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga 79,2 % va yirik korxonalar hissasiga 20,8 % to'g'ri keldi.




## ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Samarqand shahri 39,1 % ulush bilan **2 378,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Oqdaryo tumani **2,1** % ulush bilan **125,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **4817,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 9,5 % ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 79,2 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Kattaqo'rg'on shaharda (99,8 %) va Nurobod (99,3 %), Qo'shrabot (99,1 %), Kattaqo'rg'on (98,8 %), Ishtixon (98,8 %), Narpay (98,7 %), Samarqand (98,7 %) va Jomboy (98,7 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yil yanvar-may

2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatildi, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahri (104,0 %), Payariq (100,5 %), Samarqand (100,4 %) va Tayloq (100,1 %) tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda**





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>6081,4</b>	<b>99,1</b>	<b>1264,2</b>	<b>155,9</b>	<b>4 817,2</b>	<b>90,5</b>
Samarqand shahri	2378,6	104,0	1165,4	153,5	1213,2	79,4
Kattaqo'rg'on shahri	285,1	95,0	0,5	123,2	284,6	95,0
tumanlar:						
Oqdaryo	125,6	95,9	2,7	2,3 b.	122,9	94,7
Bulung'ur	314,4	99,2	40,9	85,8 b.	273,5	86,4
Jomboy	177,0	98,6	2,4	126,7	174,6	98,3
Ishtixon	239,3	93,3	3,0	59,1	236,4	94,0
Kattaqo'rg'on	228,4	98,1	2,6	2,4 b.	225,8	97,4
Qo'shrabot	165,2	91,3	1,6	4,1 b.	163,6	90,6
Narpay	182,8	99,3	2,4	4,8 b.	180,4	98,2
Payariq	212,3	100,5	3,4	3,4 b.	208,9	99,3
Pastdarg'om	334,8	90,8	12,9	62,8	321,9	92,5
Paxtachi	177,1	92,7	2,2	2,7 b.	174,8	91,9
Samarqand	239,0	100,4	3,1	61,5	235,9	101,2
Nurobod	202,9	96,3	1,5	5,2 b.	201,5	95,7
Urgut	644,1	95,8	12,2	97,5	631,8	95,8
Tayloq	174,8	100,1	7,4	22 b.	167,4	96,0

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **55,9 %** ga o'sdi va **1 264,2 mlrd. so'mni** tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **20,8 %** ulushiga to'g'ri keladi.



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **4817,2 mlrd. so'mni** tashkil etib, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **9,5 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **79,2 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,8 %), Nurobod (99,3 %), Qo'shrabot (99,1 %), Ishtixon (98,8 %), Kattaqo'rg'on (98,8 %) va Jomboy (98,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 20,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (49,0 %), Bulung'ur (13,0 %), Tayloq (4,2%) va Pastdarg'om (3,9 %) tumanlarida kuzatildi.



## SAMARQAND VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2020-yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 565,4** ming so'm (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **2,9** % ga kamaydi) va Pstdarg'om (88,9 %), Qo'shrabot (89,3 %), Paxtachi (91,1 %), Ishtixon (91,3%), Urgut (93,5 %) tumanlarida hamda Kattaqo'rg'on shahrida ((93,3 %) aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Samarqand shahri (4 347,6 ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (3178,7 ming so'm) va Bulung'ur (1684,7 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1 565,4</b>	<b>97,1</b>
Samarqand shahri	4347,6	102,5
Kattaqo'rg'on shahri tumanlar:	3178,7	93,3
Oqdaryo	790,2	94,0
Bulung'ur	1 684,7	97,4
Jomboy	1 027,2	96,1
Ishtixon	943,0	91,3
Kattaqo'rg'on	837,3	96,2
Qo'shrabot	1257,0	89,3
Narpay	859,1	97,5
Payariq	849,0	98,3
Pstdarg'om	946,1	88,9
Paxtachi	1 228,7	91,1
Samarqand	948,4	98,3
Nurobod	1 352,1	94,5
Urgut	1 267,1	93,5
Tayloq	869,5	97,7


Asosiy tarkib, foizda




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **399,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **21,2 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **162,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **74,3 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **237,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **82,2 %**) tashkil etdi.



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-may oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **162,2** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **237,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>399,4</b>	<b>78,8</b>	<b>162,2</b>	<b>74,3</b>	<b>237,2</b>	<b>82,2</b>
Samarqand shahri	19,8	32,8	18,8	34,8	1,0	15,7
Kattaqo'rg'on shahri	50,2	81,1	18,0	79,8	32,2	8,4 b.
tumanlar:						
Oqdaryo	24,8	110,7	2,7	2,0 b.	22,1	104,8
Bulung'ur	30,9	76,6	14,9	117,9	16,0	57,9
Jomboy	37,0	118,7	15,7	171,6	21,3	96,8
Ishtixon	13,4	54,4	3,5	39,0	9,9	63,1
Kattaqo'rg'on	27,7	94,8	13,5	102,7	14,2	88,3
Qo'shrabot	15,1	57,9	7,2	52,7	7,9	63,7
Narpay	17,9	92,3	17,9	92,3	0,0	0,0
Payariq	46,4	150,7	10,3	137,2	36,1	155,0
Pastdarg'om	13,3	35,9	1,6	22,8	11,7	38,9
Paxtachi	11,1	48,3	3,9	72,6	7,2	41,0
Samarqand	23,1	109,8	3,8	2,9 b.	19,3	97,9
Nurobod	29,0	90,2	14,0	131,3	14,9	69,6
Urgut	20,0	33,4	6,7	27,3	13,3	37,6
Tayloq	19,6	86,0	9,7	137,0	9,9	63,0

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



2,4  
mlrd. so'm

Tuzlamalar



57,0  
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



6,9  
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

22,8  
mlrd. so'm



Non va non  
mahsulotlari



9,4  
mlrd. so'm

Sut va sut  
mahsulotlari

4,7  
mlrd. so'm



Tuxum

27,7  
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

4,5  
mlrd. so'm



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

5,1  
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

2020-yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **162,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**57,0** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

2,9  
mlrd. so'm



Ziravorlar

18,8  
mlrd. so'm



Tovuq go'shti



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020-yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **237,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 195,8 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 32,7 mlrd. so'mni, otlar 7,4 mlrd. so'mni, parrandalar 1,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,0 %** ni tashkil etib, **122,3** mlrd. so'mga yetdi va 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **31,9 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **72,9 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining  
o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1 22,3</b>	<b>68,1</b>	<b>33,1</b>	<b>2,4 b.</b>	<b>89,2</b>	<b>53,9</b>
Samarqand shahri	78,1	80,8	30,6	2,3 b.	47,5	57,2
Kattaqo'rg'on shahri	3,7	49,1	0,0	0,0	3,7	49,1
tumanlar:						
Oqdaryo	0,9	50,7	0,0	0,0	0,9	50,7
Bulung'ur	3,4	63,8	0,7	0,0	2,7	51,2
Jomboy	1,9	50,3	0,0	0,0	1,9	50,3
Ishtixon	1,5	48,8	0,0	0,0	1,5	48,8
Kattaqo'rg'on	2,1	48,0	0,0	0,0	2,1	49,6
Qo'shrabot	1,6	47,7	0,0	0,0	1,6	47,7
Narpay	1,8	49,5	0,0	0,0	1,8	49,5
Payariq	1,8	48,9	0,0	0,0	1,8	48,9
Pastdarg'om	9,0	63,4	1,7	0,0	7,3	51,4
Paxtachi	1,5	49,0	0,0	0,0	1,5	49,0
Samarqand	4,4	55,4	0,1	38,8	4,2	56,2
Nurobod	1,6	48,7	0,0	0,0	1,6	48,7
Urgut	5,3	46,5	0,04	97,8	5,3	46,3
Tayloq	3,7	56,9	0,0	0,0	3,7	56,9

## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2019-yil  
yanvar-may



2020-yil  
yanvar-may



■ Nodavlat mulk

■ Davlat mulki

2019-yil yanvar-may oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi **0,34 %** dan **0,27 %** ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi **122,3** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 68,1 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha **122,0** mlrd. so'm nodavlat mulkka (99,73 %) hamda 0,3 mlrd. so'm (0,27 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi. Eng yuqori davlat ulushi Samarqand shahriga (99,73 %) to'g'ri keldi.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Samarqand viloyati	1 22318,9	100,0	121984,1	99,73	334,8	0,27
Samarqand shahri	78065,0	63,8	77730,2	99,73	334,8	0,27
Kattaqo'rg'on shahri	3744,7	3,1	3744,7	100,0	-	-
tumanlar:						
Oqdaryo	850,8	0,7	850,8	100,0	-	-
Bulung'ur	3405,1	2,8	3405,1	100,0	-	-
Jomboy	1939,3	1,6	1939,3	100,0	-	-
Ishtixon	1523,1	1,2	1523,1	100,0	-	-
Kattaqo'rg'on	2054,0	1,7	2054,0	100,0	-	-
Qo'shrabot	1599,8	1,3	1599,8	100,0	-	-
Narpay	1817,6	1,5	1817,6	100,0	-	-
Payariq	1781,1	1,5	1781,1	100,0	-	-
Pastdarg'om	9004,4	7,4	9004,4	100,0	-	-
Paxtachi	1544,3	1,3	1544,3	100,0	-	-
Samarqand	4351,3	3,6	4351,3	100,0	-	-
Nurobod	1621,1	1,3	1621,1	100,0	-	-
Urgut	5340,8	4,4	5340,8	100,0	-	-
Tayloq	3676,5	3,0	3676,5	100,0	-	-




## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2912,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **7,3 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **926,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **114,6 %**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1985,5** mlrd. so'mni (**14,9 %** ga kamayish), shundan mikrofirmalar savdo tovar aylanmasi **1208,5** mlrd. so'mni (**16,4 %** ga kamayish) va kichik korxonalar savdo tovar aylanmasi **777,0** mlrd. so'mni (**12,4 %** ga kamayish) tashkil etdi.

### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar


Mikrofirma

Kichik korxonalar

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Samarqand (167,5 %) shahrida va Bulung'ur (152,9 m.), Paxtachi tumanlarida (86,9 m.) kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori ulush Samarqand shahrida (77,5 %) va Pastdarg'om (16,8 %), Bulung'ur (1,3 %) tumanlarida qayd etildi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi o'zgarish sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2912,1</b>	<b>92,7</b>	<b>926,7</b>	<b>114,6</b>	<b>1985,4</b>	<b>85,1</b>
Samarqand shahri	1642,7	108,3	718,4	167,5	924,4	84,9
Kattaqo'rg'on shahri	42,2	84,4	0,1	163,7	42,1	84,3
tumanlar:						
Oqdaryo	55,8	83,3	0,1	31,3	55,7	83,7
Bulung'ur	61,7	107,7	12,3	152,9 b.	49,4	86,4
Jomboy	39,2	83,4	0,2	51,1	39,0	83,7
Ishtixon	44,4	99,8	7,2	14,5 b.	37,2	84,6
Kattaqo'rg'on	140,5	83,8	0,5	2,1 b.	140,0	83,6
Qo'shrabot	5,0	82,0	0,07	35,3	4,9	83,6
Narpay	28,8	108,6	8,3	4,1 b.	20,5	83,7
Payariq	69,6	106,5	16,6	4,2 b.	53,1	86,3
Pastdarg'om	218,2	49,1	155,3	41,9	62,9	85,4
Paxtachi	28,4	112,5	7,1	86,9 b.	21,3	84,8
Samarqand	145,4	84,7	0,2	31,1	145,2	84,9
Nurobod	15,9	87,1	0,1	3,0 b.	15,8	86,8
Urgut	112,3	84,2	0,3	110,4	112,0	84,2
Tayloq	262,0	87,5	0,07	133,7	261,9	87,5

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, 1985,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **14,9 %** ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 68,2 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Samarqand (99,9 %), Urgut (99,8 %), Kattaqo'rg'on (99,7 %), Oqdaryo (99,7 %) tumanlarida va Kattaqo'rg'on shahrida (99,7 %) yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Pastdargom (28,8 %) yatiga to'g'ri keldi.

